Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini matn ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish	628
<i>Sotiboldiyeva Shoxista Jaloliddin qizi, Shodmonqulova Sevara Rahmonqul qizi</i>	
O'quv-tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish asoslarida talabaniy tarbiyaviy jihatlarini takomillashtirish ..	632
<i>Temirov Ma'ruf Shuhrat o'g'li</i>	
Tikuv buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirishning avtomatlashtirilgan tizimlari fani orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	638
<i>Umarova Fotima Abduraximovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda xalq pedagogikasi vositasida milliy xarakter xususiyatlarini shakllantirish omillari	641
<i>Usmonova Muattar Bahadirjonovna, Hasanboyeva Kamola Dilmurod qizi</i>	
Raqamli ta'lim texnologiyalarning bugungi kunda ta'lim sohasidagi qo'llanilishi	647
<i>Xamroyeva Madina Dadajonovna, Umarov Husan Lazizi o'g'li</i>	
Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni boshqarishni takomillashtirish	650
<i>Xaydarova E'zoza Shukurullayevna, Li Zin Bo</i>	
Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid tadqiqot ishlarining tahlili	655
<i>Xodjanliyazova Shoxsanam Ergash qizi</i>	
O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umurlar" romanida inson va uning ruhiyati	660
<i>Xolmatova Ro'zixon Akmaljon qizi</i>	
Talabalarda liderlikni shakllantiruvchi ijtimoiy-pedagogik omillar	663
<i>Xoshimova Muazzamxon Zaynalobidinovna</i>	
Creative Games and Project-Based Learning in Physics Lessons	666
<i>Yorqinbek Abduraimjanovich Mamatokhunov</i>	
Теоретические основы и практическое применение компетентностного подхода в обучении физике	670
<i>Абдулхаким Хакимов</i>	
Роль инклюзивной игровой деятельности в социальной адаптации детей с инвалидностью дошкольного возраста	673
<i>Плиева Руслана Владимировна</i>	
"Beruniy asri" yoxud Beruniyning xarizmatik qobiliyati va uning boqiy ilmiy merosi	676
<i>Saifnazarov Ismoil, Sultonov Tursinboy</i>	
Значение наблюдения и педагогической диагностики в инклюзивном образовании	682
<i>Тургунова Нилуфар Абдусаломовна</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik dunyoqarashini shakllantirish texnologiyalari	685
<i>Xaydarova Shaxlo Narzullayevna, Azimova Gulmira Xayrullayevna</i>	
Диалог культур в рассказе "Келинка" галины ширяевой: гендерная и этнокультурная перспектива ..	689
<i>Чернова Татьяна Алексеевна</i>	



GEOGRAFIYA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI O'QITISH METODIKASI VA KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA OID TADQIQOT ISHLARINING TAHLILI



Xodjaniyazova Shoxsanam
Ergash qizi

Buxoro davlat pedagogika
instituti Geografiya va iqtisodiy
bilim asoslari yo'nalishi 3-kurs
talabasi

ORCID: 0000-0003-2439-1483

Annotatsiya: Mamlakatimizda kechayotgan zamonaviy globallashtirish jarayonlarida malakali kadrlar tayyorlash, demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslari konsepsiyasini hayotga tatbiq etish, ijodiy tafakkur, innovatsion fan va texnologiyalarni, shuningdek, innovatsion ta'lim yo'nalishlari asosida xalqaro pedagogik tajribani o'zlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Ta'lim va tarbiya uzluksizligini ta'minlash doimo e'tiborda bo'lib kelgan dolzarb masalalardan biridir. Buning uchun ta'lim jarayonida bolalarning nutqi, muloqot qobiliyatlari, hissiy, aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish lozim. Jumladan: toza joy, toza havo, yetarli darajada normal haroratga ega xona, yoritish, xavfsizlik choralari, sport va dam olish maydonchalari mos ravishda jihozlangan bo'lishi zarur.

Kalit so'zlar: muhokama, trening, biznes o'yini, intellekt, tafakkur, o'z-o'zini baholash, bola rivojlanishi.

Abstract: In the context of modern globalization, there is an increasing need in our country to train qualified personnel, deepen democratic reforms, and implement the concept of civil society foundations. This includes fostering creative thinking, mastering innovative sciences and technologies, and adopting international pedagogical experience through innovative educational approaches. Ensuring the continuity of education and upbringing remains a key priority. To achieve this, it is essential to create favorable conditions for children's speech development, communication skills, and emotional, cognitive, physical, and social growth within the educational process. These conditions include clean spaces, fresh air, rooms with appropriate temperatures and sufficient lighting, adherence to safety standards, and properly equipped areas for sports and recreation.

Key words: discussion, training, business game, intelligence, thinking, self-esteem, child development.

Аннотация: В современных условиях глобализации в нашей стране возникает необходимость подготовки квалифицированных кадров, углубления демократических преобразований и реализации концепции основ гражданского общества. Актуальным становится развитие творческого мышления, овладение инновационными науками и технологиями, а также освоение международного педагогического опыта на основе современных тенденций в образовании. Обеспечение преемственности образования и воспитания – один из важнейших вопросов, который всегда находился в центре внимания. Для этого необходимо создать благоприятные условия для развития речи детей, коммуникативных навыков, эмоционального, умственного, физического и социального развития. В частности, это чистое пространство, свежий воздух, помещения с нормальной температурой и достаточным освещением, соблюдение мер безопасности, наличие зон для занятий спортом, отдыха и соответствующим образом оборудованных детских площадок.

Ключевые слова: обсуждение, тренинг, деловая игра, интеллект, мышление, самооценка, развитие ребёнка.

KIRISH

Jahonda ta'lim tizimida talabalarning bilim olishi hamda bo'lajak mutaxassislarining raqobatbardoshligini ta'minlash, kasbiy-pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuvni shakllantirish, ta'limda ilg'or texnologiyalar, didaktik vositalar va uskunalar keng foydalanish, o'qitishning zamonaviy usullarini integratsiyalash masalalari ta'lim muhitining samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi muhim omillar hisoblanadi. Geografiya

ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish o'z navbatida ta'lim beruvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi yondashuvlari va o'qitish vositalarini yangilashni talab qiladi. Talabalarini o'qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadallik bilan kirib kelishi ularning materialni o'zlashtirishi va tezkor kerakli ma'lumotlarni olishiga xizmat qiladi. Dasturiy ta'lim vositalaridan keng foydalanish, o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullarini integratsiyalash dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Dunyoda fan va texnika rivojlanayotgan mamlakatlarda zamonaviy ijtimoiy o'quv jarayonini virtual loyihalash global ahamiyat kasb etmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashtirish, o'quv jarayoniga Milliy kvalifikatsiya tizimini to'liq joriy etish, tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o'rin egallashlari uchun ta'lim mazmunini innovatsion loyihalash, innovatsion kasbiy kompetensiyalarni tarkibiy qismlarga ajratish, ta'limning yangi metodik modellari yaratish va ularni muayyan ta'lim amaliyotida qo'llash talab etilmoqda ^[1].

Taraqqiyot bosqichlarining dolzarb masalalari sifatida ta'limning ustuvor yo'nalishi bo'lmish bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash, innovatsion modellarni ishlab chiqish va kadrlarning raqobatbardoshligini oshirish tadqiq etilmoqda. Dunyoda bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida tayyorlashda ta'lim jarayonini yuksak darajaga olib chiqish, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish, ular bilan hamkorlikda tadqiqotlar olib borish va amaliyotga joriy etish talab etilmoqda.

2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" dolzarb vazifa sifatida belgilangan ^[5]. Ushbu konsepsiya doirasida ta'lim tizimida pedagoglar, jumladan, bo'lajak o'qituvchilarni kompetensiyaviy yondashuv asosida metodik tayyorgarlik darajasi hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirish, jahon andozalariga mos innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy vositalardan keng foydalanish bugungi kun uchun ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimizda bugungi globallashuv jarayonida oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan "Geografiya" ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion ta'limga tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish, raqamli texnologiyalar va dasturiy ta'lim ilovalaridan foydalanib ta'lim berish, shu yo'nalishga tegishli metodikalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Mamlakatimizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi mustahkam poydevor qurishdan iborat bo'lib, ushbu poydevor sog'lom, har sohada rivojlangan barkamol mutaxassis kadrlarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Mazkur huquqiy me'yoriy hujjatlar doirasida alohida e'tiborga muhtoj bolalar ta'lim-tarbiyasi ham qamrab olingan.

Ta'lim to'g'risida"gi Qonun'da "har bir bolaning ta'lim olishdagi teng huquqli"ligi ta'minlash, har qanday diskriminatsiya va kamsitishlarning oldini olishga qaratilgan "inklyuziv ta'lim" tushunchasi ham kiritildi. Shuningdek, mazkur qonunning 55-moddasida "rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchiliklarga ega bo'lgan bolalar ta'lim olish huquqiga egadirlar" – deyiladi ^[5]. Demak, qonunga ko'ra uzluksiz ta'lim tizimida barcha yengil darajadagi alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan yoshlarning ehtiyojlari va individual imkoniyatlarining farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashga xizmat qiladi. Hozirgi zamon globallashuv jarayonida yetuk mutaxassis-kadrlarni tayyorlash zarurati, demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslari konsepsiyasini amalga oshirishda, kreativ fikrlovchi, innovatsion texnologiya hamda dasturiy ta'lim vositalarini mukammal egallagan mutaxassis kadrlarning innovatsion ta'lim tendensiyalari asosidagi xalqaro pedagogik tajribaga ko'ra, "Geografiya" ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy faoliyatga oid kreativligini rivojlantirishda bir qancha dasturlar asosida ishlab chiqilgan dasturiy ta'lim vositalarining yangi avlodlarini takomillashtirish orqali majburiy va tanlov fanlarini virtual reallik qonuniyatlari asosida talabalarni innovatsion kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida dasturiy ta'lim vositalarini samarali qo'llash orqali ularning imkoniyatlari to'liq ochib berilmaganligi, kompyuter dasturlaridan foydalanish metodikasi asosida o'qitishni mazmunan takomillashtirish jarayonini keng joriy etish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi ^[6].

Pedagog olim N.A. Muslimov tomonidan talaba yoshlarda kasbiy xislatlarni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilgan. Pedagog olim V.M. Blinovning fikricha, ta'lim-tarbiya ishlarida yuqori samaradorlikka erishish talabalarining individual qobiliyatlari va layoqatlarini e'tiborga olib tabaqalashtirilgan topshiriqlar berishni taqozo etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashning samaradorligi yuqori bo'lishi uchun dars mazmunini innovatsion texnologiyalarga asoslangan dasturiy vositalar asosida tashkil etishni tadqiqotimizning asosiy vazifalaridan biri deb belgiladik ^[6]. "Geografiya" ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga, ularning "Geografiya" sohasiga oid kreativ kompetentligiga uzviy bog'liq bo'lib, dasturiy ta'lim vositalarini qo'llash muammosi bo'yicha xorijiy mamlakatlar va vatanimiz olimlari tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, bo'lajak "Geografiya" fani o'qitu-

1 <https://lex.uz/docs/-5013007>



vchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari, kasbiy shakllantirish, rivojlantirish va tashxislash masalalariga oid ilmiy izlanishlar olib borilgan ^[6].


Respublikamiz olimlaridan B.M. Abduraxmonovning ilmiy ishlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining geografik madaniyatini shakllantirish jarayonining tasviriy-didaktik jihatlarini, ta'lim vositalari tasniflanishida ta'lim muhiti va ular orasidagi uzluksizlik va uzviylikni hisobga olish asosida metodik jarayonni amalga oshirish tizimi va modeli, ta'lim vositalaridan foydalanish va model komponentlarining uzviy bog'liqligi asosida ishlab chiqilib, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarning baholash darajalarini refleksiv tahlil qilish va tahliliy faoliyat natijalari orqali xaritagrafik savodxonlikning kafolatlangan samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan. O'quvchilarning geografik madaniyatining shakllanishini ta'minlovchi ta'lim vositalari majmuasidan foydalanishning didaktik, ergonomik va metodik talablari elektron darslik, interfaol xaritagrafik qo'llanmalar asosida takomillashtirilgan ^[6].

N. Abdullayevaning dissertatsiya ishida "Geografiya" fani o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayonida elektron ta'lim vositalaridan foydalanish asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish va o'qituvchilarning axborot kompetentlik ko'rsatkichlarini rivojlantirish mazmuni (metodik-tashkiliy, texnologik jarayonli, kreativ) raqamli texnologiyalar vositasida ta'limni axborotlashtirish talablari hamda didaktik maqsadlarini (motivatsion-qadriyatli, kognitiv-faoliyatli, shaxsiy-refleksiv) integratsiyalash asosida o'qitish metodikasi aniqlashtirilgan ^[7]. F.A. Xamroyevaning ilmiy-tadqiqot ishida mediatexnologik ta'limning tabiiy geografik fanlarga doir bilim, malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishdagi o'rni, mediatexnologiyalarning tashkiliy (ijtimoiy, individual, metodik, informat-ion, kreativ, innovatsion, kommunikativ, pedagogik, psixologik) komponentlari mazmunini ochib berish orqali asoslangan bo'lib, geografik fanlarni o'qitish jarayonlarini takomillashtirishga ta'sir etuvchi omillar (metodik, didaktik, psixologik) mediatexnologiyalarning xususiyatiga ko'ra tasniflash (audiovizual, multimedia, giper-matnli, xolografik) asosida aniqlashtirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

"Xorijiy oliy ta'lim muassasalarida sifat va raqobatbardoshlikni ta'minlash yo'llari" mavzusidagi dissertatsiya tadqiqotida xorijiy oliy ta'lim muassasalarida sifat va raqobatbardoshlikni ta'minlash omillari xalqaro tajribada keng tarqalgan "bilimlarning kommersiyalashtirilishi" va "transnatsional ta'lim" faoliyati mazmuni asosida aniqlashtirildi. Oliy ta'limda sifat va raqobatbardoshlikni ta'minlashning pedagogik mexanizmlari sifatida diagnostik (diagnostic), metrik (metric), ichki (internal), tashqi (external), raqobat (competitive) benchmarking usullariga ustuvorlik berildi. Shuningdek, oliy ta'lim sifatini belgilovchi komponentlar o'zaro mosligi va o'xshashligini me'yoriy tavsiflashga yo'naltirilgan tyuning metodi kompetensiyalarga asoslangan ta'lim bilan maqbul uyg'unlashtirildi. Oliy ta'lim muassasalarida sifat va raqobatbardoshlikni ta'minlashning akademik va institutsional jihatdan strategik rejalashtirish mexanizmi – oliy ta'limning xalqarolashuvi jarayoni, xorijiy talabalar sonining oshirilishi, professor-o'qituvchilar almashinuvining ko'payishi, xalqaro ta'limni tashkil etish orqali budjetdan tashqari mablag'larning ko'paytirilishi kabi ko'rsatkichlarga asoslanib takomillashtirildi ^[6].

TAHLIL VA NATIJALAR



1-rasm: Innovatsion kasbiy faoliyatga ega talabaning o'zida namoyon eta oladigan malakalari



1-jadval: Talabalarda kreativ tafakkurini rivojlantirish mezonlari

№	Mezonlar	Mazmuni
1	Bilim	Bilimlardan xabardor bo'lish, ularni o'zlashtirish, yodda tutish, qayta yodga olishni ifodalaydi.
2	Tushunish	Bilimlar yuzasidan fikrlash, mushohada yuritish, nazariy holatdan amaliyotga ko'chish mantig'ini o'zlashtirish.
3	Qo'llash	Bilimlarni amaliyot (amaliy xarakter)da qo'llash.
4	Analiz	Mavjud bilimlarga tayangan holda yaxlit, bir butun obyekt, hodisa va voqe'lik va jarayonni tarkibiy elementlarga ajratgan holda o'rganish, juz'iy xulosa chiqarish.
5	Sintez	Mavjud bilimlarga tayangan holda ayrim, alohida tarkibiy elementlar asosida yaxlit, bir butun obyekt, hodisa, voqe'lik va jarayon to'g'risida umumiy xulosa chiqarish.
6	Baholash	Shaxsning nazariy bilim hamda amaliy ko'nikma, malakalarga egaligini baholash.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahonda ta'lim tizimida talabalarning bilim olishi hamda bo'lajak mutaxassislarning raqobatbardoshligini ta'minlash, kasbiy-pedagogik faoliyatda innovatsion shakllantirish; ta'limda ilg'or texnologiyalar, didaktik vositalar va uskunalar keng foydalanish, o'qitishning zamonaviy usullarini integratsiyalash masalalari ta'lim muhitining samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillardan hisoblanadi. Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim beruvchilarning ta'lim-tarbiya berish usullari va o'qitish vositalarini ham o'zgartirishga olib keladi. Talabalarni o'qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadallik bilan kirib kelishi ularning materialni o'zlashtirishi, tezkor va kerakli ma'lumotlarni olishlariga xizmat qiladi. Dasturiy ta'lim vositalaridan keng foydalanish, o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullarini integratsiyalash masalalari dolzarb vazifalar sifatida e'tirof etilmoqda. Dunyoda fan va texnika rivojlanayotgan mamlakatlarda zamonaviy ijtimoiy o'quv jarayonini virtual loyihalash muhiti global ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

YUNESKO tomonidan qabul qilingan ta'limning xalqaro standart tasniflagichi [MSKO] darajalari bilan uyg'unlashtirish; o'quv jarayoniga Milliy kvalifikatsiya tizimini to'laqonli joriy etish; tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o'rin egallashlari uchun ta'lim mazmunini innovatsion loyihalash; innovatsion kasbiy kompetensiyalarni tarkibiy qismlarga ajratish; ta'limning yangi metodik modellarini yaratish va ularni muayyan ta'lim amaliyotida qo'llash talab etilmoqda. Taraqqiyot bosqichlarining dolzarb masalalari ta'limning ustuvor yo'nalishi sifatida bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash, innovatsion modellarni ishlab chiqish, bo'lajak kadrlarning raqobatbardoshligini oshirish dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda.

Dunyoda bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida tayyorlashda ta'lim berish jarayonini yuksak darajaga olib chiqish bo'yicha xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish va ular bilan hamkorlikda tadqiqotlar olib borish, amaliyotga qo'llash talab etilmoqda. 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" dolzarb vazifa sifatida belgilandi [5]. Ushbu konsepsiya ta'lim tizimida pedagoglar, jumladan, bo'lajak o'qituvchilarni kompetensiyaviy yondashuv asosida metodik tayyorgarlik darajasi hamda ijodiy tafakkurini rivojlantiradigan, jahon andozalariga mos keladigan innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy vositalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish bugungi kun uchun ustuvorlik kasb etadi.



Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion kasbiy faoliyatga ega bo'lgan talabalarda quyidagilar namoyon bo'ladi: bo'lajak pedagoglarning xayoliga kelmagan g'oyalarni ilgari suradi, o'zini ifoda etishning o'ziga xos uslubini tanlaydi, ba'zan mavzuga aloqasi bo'lmagan yoki g'ayrioddiy savollar beradi, yechimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi, g'oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko'radi, muammoning yechimini topishda noan'anaviy yondashuvni tanlaydi. 5140600 – Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid jarayonni takomillashtirish muammosi, uzluksiz ta'lim tizimida yuqori malakali mutaxassis kadrlarni yetishtirish o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etishi o'rganildi. Ushbu muammoning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish, ularning nazariy va amaliy jihatdan asoslanishi, shuningdek kasbiy tayyorgarlikdagi kreativlikni takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar asosida dasturiy ta'lim vositalarining ishlab chiqilishi yuqorida izohlangan jarayonning samarali tashkil etilishiga imkon beradi.

Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid kasbiy faoliyat turlari: tashkiliy, kommunikativ, informatsion, rivojlantiruvchi, mobilizatsion, nazorat, texnik va boshqalardan iborat ekanligi, pedagog mutaxassis faoliyatidagi amaliy jarayonlarni bajarishlariga qarab ularning vazifalari (umumiy) o'qituvchi faoliyati tuzilmasi va (xususiy) faoliyat turlaridan iborat ekanligi aniqlandi. Talabalarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini rivojlantirishning asosi sifatida kompyuter vositasida amalga oshiriladigan dasturlashtirilgan ta'lim metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi nazariy jihatdan asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-sonli "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3436192>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <http://lex.uz/ru/docs/-5044711>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-sonli "Alohida sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-6480342?ONDATE=21.11.2024%2000>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4545884>
5. Shadiyeva N.Sh. Talabalarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish (geografiya ta'lim yo'nalishi misolida). Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2024-yil. 125 b.
6. Shadiyeva N.Sh. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida virtual ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish. // Ilm-fan va texnologiyalar. Buxoro shahri, 2023-yil, №3(1), 52–57-betlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.